

**Muhammad Ali**



**UCH OLTIN G'ISHT**

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2015*

UO'K: 821.512.133-1

КБК ~~84(50)7~~

A 98

— Ўзбек адабиёти

**Ahmedov, Myhammed Ali**

A 98

Uch oltin g'isht: she'rlar/M.A. Ahmedov. —  
Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2015. — 32 b.  
ISBN 978-9943-05-751-7

Ushbu mo'jazzgina kitobchada bolajonlarga mo'ljallangan  
turli mavzudagi she'rlar to'plangan.

Ayniqsa ular tabiatdagi foydali o'simliklar, hasharotlar  
haqidagi quvnoq she'rlardan zavqlanib, to'plam so'ngida  
berilgan ertaklardan o'zlariga kerakli saboqlarni oladilar.

UO'K: 821.512.133-1

КБК 84(50)7

ISBN 978-9943-05-751-7

© Muhammad Ali, 2015

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2015

**Alisher Navoiy**

nomidagi

O'zbekiston MK

2016/98

4344



## ALIFBONI SEVAMIZ

*(Alifbo bayramiga)*

Yigirma to'qqiz harf bizda,  
Yigirma to'qqiz harf bizda.  
O'qimoqqa mehr bor  
Har o'g'ilda, har qizda.

Har bitta harf bir kalit,  
Ming bir tilsim ochadi:  
Bug'doyzorlar shovullab,  
Yulduzlar nur sochadi.

Kitobimda bus-butun  
Go'zal bo'ston ko'rinar.  
Ozod Vatan, ona yurt —  
O'zbekiston ko'rinar!

Harflarni sevamiz,  
Mehri doim ko'zlarda.  
Bir umrlik do'st ular,  
Ayrilmaydi bizlardan.

Yigirma to'qqiz do'stimiz,  
Yigirma to'qqiz do'stimiz.  
Dunyoda biz bir bo'lsak,  
Bo'lmaydi kam-ko'stimiz!

---

## ONAMLARNING BAYRAMI

Bugun tursam ertalab,  
Katta bayram bo'libdi.  
Darcha-yu tokcha oldi  
Gullar bilan to'libdi.

Anov katta guldasta —  
Dadamlarning sovg'asi.  
Anovisi — opamlar,  
Akamlarning sovg'asi.

Bayram bilan qutlay deb,  
Salom berib onamga,  
Oppoq bodom darchadan  
«Qo'l» cho'zadi xonamga.

Ariqlarning labida  
Ko'karibdi o't-o'lan.  
Hovlimiz bo'ldi obod  
Sayroqi qushlar bilan.

Bari, bari onamni  
Bayram bilan qutlashar.  
Onam shunday ulug' zot,  
Onajonim ko'p yashar!

Sening sovg'ang ne, dersiz,  
G'amimni yeb qo'yganman:  
Onamlarni qutlay deb,  
O'nta «5» ob qo'yganman!

---

## ASKAR BO'LAMAN

Qo'rqmas askar bo'laman,  
Jasur tezkor bo'laman.

Jangchi bo'lganlar otam,  
Sohibqiron bobom ham.

Xalq deb kiraman jangga,  
Qalqon bo'lib Vatanga!

Aslo ortga qaytish yo'q!  
Vatan, ko'ngling bo'lsin to'q!

---

## SOHIBQIRON BOBOMLAR

Samarqandga borganda  
Maqbaraga kirdim men.  
Dadam Qur'on o'qidi,  
Quloq solib turdim men.

Bizni o'ylab yurt tuzdi  
Amir Temur bobomlar.  
Yuboraman doimo  
Ruhlariga salomlar.

«Millatga darmon bo'ling!» —  
Deb aytganlar bobomiz.  
Mangu qolsin nomlari,  
Shul erur muddaomiz!

Bobom ulug' insonlar,  
Boshiga qo'ngan humo.  
Haykalining poyiga  
Gul qo'yaman doimo.

---

## KUNGABOQAR

Kungaboqar, kungaboqar,  
Quyosh nuri unga yoqar.  
Kim qayoqdan nur taratsa,  
Xursand bo'lib shunga boqar.

Bahor kelib ilisa kun,  
Bo'ylarin cho'zib mamnun,  
Yuz-boshini o'rab butun  
Gulchalardan tanga taqar.

Qora-qura tishlari bor,  
Cho'ng boshiga kiyib dastor,  
Sho'xlik qilmay, jim, beozor  
Qarashlari menga yoqar.

Dalalarda yurar bo'lsang,  
Bog'-rog'larga borar bo'lsang,  
Turishadi, qarar bo'lsang,  
Marzalarda turnaqator.

Bo'yim kichik — yetay desam,  
Qo'lim kalta — tutay desam,  
Pistasidan totay desam,  
Hamma kulib menga boqar.

Niyatimni xo'p bilding sen,  
Men tomonga egilding sen,  
Yosh ko'nglimni tog' qilding sen,  
Kungaboqar, kungaboqar!

---

## MOMAQAYMOQ

«Momaqaymoq, tebranasan shamolda,  
Endigina o'tqazilgan niholday.

Oppoq tojing yumaloq oy singari,  
Oppoq tojing — bamisoli Yer shari.

Senga bordir bittagina so'rog'im,  
Momaqaymoq, momaqaymoq, qaymog'im!

Xo'p desang gar, seni olay ohista,  
Gul tuvakka eltib solay ohista.

Tinch yashaysan kattagina xonada,  
O'zboshimcha shamollardan panada.

Rayhonlarga tojing ko'z-ko'z etasan,  
O'sib-o'sib quyoshgacha yetasan!»

Momaqaymoq ko'taradi asta bosh,  
Shu on shamol kelar dag'al va bevosh,

Gul yuziga bir tarsaki tushirar,  
Patlarini har qaylarga uchirar.

«Momaqaymoq, momaqaymoq, qaymog'im!  
Hozir yoshman, kelar yigittlik chog'im!

Qo'l solganda shamollarni to'sarman,  
Dovullarni bitta g'orga yig'arman!

G'or og'ziga tosh bosarman kattakon!  
Farog'atda yashaydi so'ng keng jahon!

Sen o'shanda o'ksimoqni tashlarsan,  
Oppoq tojing ko'z-ko'z qilib yasharsan!»



---

## BO'TALOQ

Bo'talog'im yayraydi,  
Yantoq bersam chaynaydi.  
Yam-yashil o'tloqlarda  
Lo'k-lo'k chopib o'ynaydi.  
    Bo'talog'im, lo'k-lo'k,  
    Lo'killama, cho'k-cho'k!

Bo'talog'im to'ysin deb,  
Barra o'tlar tutaman.  
Agar qasd qilsam, chopib  
Undan o'zib ketaman!  
    Bo'talog'im, lo'k-lo'k,  
    Lo'killama, cho'k-cho'k!

## SHUDRING

Bog'imizga bir qarang,  
Gul ochildi rang-barang.  
Tongda shudring tushibdi,  
Gulga chiroy qo'shibdi.

Bog'dan nari poliz bor,  
Unda qovun-tarvuz bor.  
Qovunlar katta-katta,  
Yozda keling albatta!

---

## ZUBTURUM

(Bargizub)

Eshitgandim juda ko'p  
Men «zubturum» so'zini.  
Lekin eshitib turib,  
Ko'rmovdim hech o'zini.

Onam derdi:

«Qorinchang  
Og'rib qolsa netasan?  
Zubturum suvin ichsang,  
Otday bo'lib ketasan!»

Beparvo dedim:

«Iya!  
Suv kechib,  
boqqa kirib  
Zubturum qayda deya,  
Yurayinmi qidirib?..»

Ammo bir kun zirqirab  
Og'rib qoldi-ku boshim!  
Yuz-ko'zimdan tirqirab  
Oqar edi ko'z yoshim.

Nimadir topayin deb,  
Onam chiqdi tashqari.  
Suv bo'ylarin qidirib  
Yurdi o'tloqdan nari.

Toki kelguncha onam,  
«Voy boshim, voy!»  
deb turdim.

Onam artib peshonam,  
Qo'yib qo'ydi zubtukum.

Boshimning ham haligi  
Og'rig'i tindi-qoldi.  
Zubtukum nimaligin  
O'shanda bilib oldim!

Endi aqlim kirdi sal,  
Endi har doim shayman:  
Boshim og'rishdan avval  
Men zubtukum izlayman!

WWW.NATLIB.UZ

---

## UCHUVCHI, DEB CHAQIRING

O'zim juda chiroyli  
Bir samolyot yasadim.  
Koinotning sirini  
Bilmoq asil maqsadim!

Agarda kerak bo'lsam,  
Uchuvchi, deb chaqiring.  
Mirrix, Mushtariylarni  
Quchuvchi, deb chaqiring!

## VAGONLAR

Qatorma-qator  
Vagonlar o'tar.  
Uzoq yerlarga  
Bir zumda yetar.

Istagan yerga  
Borib yetadi.  
Xalqinga boylik,  
Osh-non eltadi.

---

## QO'GIRCHOQNING OPASI

To'rt yoshli Nargizaxon  
Qo'irchog'in izlaydi.  
Ayasini qo'ymasdan,  
Toping, deb tig'izlaydi.

Ayasi der: «Bor, qizim,  
Karavotingni qara.  
O'yinchoqlar ichidan  
Topilib qolsa zora».

Qo'g'irchoq esa biroq  
Hech qayerda yo'q edi.  
Topolmasdan qizchanning  
Ko'zlariga yosh keldi.

Kulib deydi ayasi:  
«Dadang keltirar yangi.  
Qo'g'irchoq ham kerakmas,  
O'zing qo'g'irchoqsan-ku!»

«Yo'q, yo'q! — deydi Nargiza, —  
Qilmang meni xafa siz!  
Qo'g'irchoq emasman men,  
Opasiman, opasi!..»

---

## CHITTIGUL

Akacham oy tomon boraman, deydi,  
Bulutlar ko'ksini yoraman, deydi.  
Ha-yu, chittigul!  
Ha-yu, chittigul!

Fazoda juda ko'p sirlar bor, deydi.  
Chamanzor bo'luvchi yerlar bor, deydi.  
Ha-yu, chittigul!  
Ha-yu, chittigul!

Yulduzdan yulduzga o'taman, deydi,  
Singiljon, yoningga qaytaman, deydi.  
Ha-yu, chittigul!  
Ha-yu, chittigul!

## MAKTABIMIZ HOVLISI

Maktabimiz hovlisi  
Katta juda ham.  
Tanaffusda o'ynaymiz,  
Barcha shod-xurram.

Gul ekamiz xilma-xil,  
Ekamiz daraxt.  
Hur Vatanni yashnatmoq  
Bizlar uchun baxt!

**BU FASL NOMI NIMA?**

Oq kiyingan dalalar,  
Bu fasl nomi nima?  
Qor o'ynaymiz bolalar,  
Bu fasl nomi nima?

Soylar to'lib oqadi,  
Qirlar chechak taqadi,  
Chigit unib chiqadi,  
Bu fasl nomi nima?

Oftob juda qizdirar,  
Mevalarga bol kirar,  
Bizni bog'lar chaqirar,  
Bu fasl nomi nima?

Yomg'ir asta tomchilar,  
Barglar yerga sochilar,  
Paxtalar ham ochilar,  
Bu fasl nomi nima?..

## MUZQAYMOQ

Dadasi Komronjonga  
Olib berdi muzqaymoq.  
Muzqaymoqni yeb olsin,  
Bo'lsin, dedi, vaqti chog'.

Dadasi der: «Shirinmi?..»  
Qovoq uyadi Komron:  
«Shirinligi yaxshi-yu  
Tugab qolishi yomon...»

## TIL O'RGANGAN MUSHUKCHA

«Vov! Vov!» — dedi birdan Mushukcha...  
«Senga sira yarashmaydi, qo'y!  
Sen mushuksan, «Miyov! Miyov!» de!» —  
So'z qotishdi Sigir bilan Qo'y.

Qah-qah otdi qu-qu-lab Xo'roz,  
Kishnab qo'ydi qoziqdagi Ot.  
Lapang-lapang yetib keldi G'oz,  
Yig'ildi-da ja'mi hayvonot.

«Vovullama!..» deyishar bari,  
Mushukchaga tikilib bir-bir.  
Mushukcha der: «Ortda qolmay deb,  
«O'rganyapman chet tilni axir!»



## SIRLI QUSHLAR

*Hind afsonasi*

Taxtda cho'kib o'ltirardi Ushinor,  
Diyonatli, saxovatli shahriyor.

Mamlakati obod, eli shodmon, hur,  
Bu dunyoning sakkiz yog'iga mashhur.

Ajab birdan taxt poyiga porillab  
Kaptar qo'nar, tilga kirar zorillab:

«Muruvvatli valine'mat, najot ber,  
Axir barcha seni odil, haqgo'y, der.

Ortdan quvib kelar meni bir lochin....» —  
Kaptar so'zin tugatolmadi lokin.

Shuvillabon uchib tushdi lochin ham:  
«Shohim! — dedi. — Shu kaptardir nasibam.

Sen haqgo'ysan, haqgo'ylicing bir ko'ray,  
Kaptarni ber! Yebon nafsım qondiray!»

Ushinor der: «Ajab bir qush ekansan,  
Bu so'zingni, bilmam, qandoq degansan.

Kaptar mendan so'rab tursa-yu panoh,  
Senga bersam... Axir gunoh-ku, gunoh!»

«O, shahriyor! — dedi lochin. — Haq qayda?  
Gaplaringdan qorin to'ymas, yo'q foyda.

Bir kaptarning jonin saqlarsan omon,  
Men-chi! Meni unutdingmi batamom?

Yemak kutib uyda qolgan bolalar,  
Quruq qaytsam, qilsa ne tong nolalar?

Birni deb yo ko'pga zavol tilarsan?  
Nahot, shuni haqqo'ylik deb bilarsan?»

Hayratlanib qarar ekan Ushinor,  
Dono lochin iddaosin tushunar.

«So'zlaring rost... Ajab, mushtdek bir kaptar,  
To'yg'izurmi sening qursog'ing magar?

Evaziga istasang gar bug'u ol,  
Ho'kizni ko'r, qobonga ham nazar sol!»

«Yo'q, taqdirning ishida ham bor ma'ni:  
Kaptar — bizning peshonaga bitgani!»

Shoh esa der: «Ko'ngling to'lmasa agar,  
Ne xohlasang olgin — dur-u inju zar!..»

«Mayli... Kaptar qolsin. Ammo, — lochin der, —  
O'z etingdan kaptarchasin kesib ber!»

Xursandlikdan qah-qah otar Ushinor!  
«Men roziman, bundan oson ne ish bor?»

O'z etidan kesib olar shahriyor,  
Toroziga asta solar shahriyor.

Kaptar og'ir kelganini ko'rar ul,  
Ikkinchi bor badanga tig' urur ul.

Ilmi g'aybday sirli edi bu kaptar,  
Tarozini bosmas edi et magar.

Bo'lak-bo'lak kesaverib qo'li qon  
Podsho ko'rди, qolmish quruq ustixon!

«O, Ushinor, bo'ldi, bas qil! — der lochin, —  
Saxovatda zo'r ekansan chindan-chin!

Bil, men — Indra, yazdonlarning podshosi,  
Bu vallomat — Agni, olov xudosi.

Yetib bordi sha'n-shukuhing samoga,  
Naq Barohim nazar etgan ma'voga.

Saxovating uchun mangu qolursan,  
Mangu ruhlar safidan joy olursan!

Sen yazdonlar ichra kasi a'lo, sen!  
Sen insonlar ichra misli xudo sen!»

Podsho nomin burkab sharafga, shonga,  
Sirli qushlar parvoz etdi osmonga...

---

## UCH OLTIN G'ISHT

### *Otamning hikoyasi*

Almisoqdan avvalmi,  
Yo keyinmi, bir zamon,  
Farg'onada yashardi  
Og'a-ini uch o'g'lon.  
To'ng'ichining yo'q edi  
Bosh suqmagan ko'chasi.  
Ul aytganni qilishar,  
O'rtanchasi, Kenjasi.

Chirsillar qish sovug'i,  
O't gurillar o'choqda...  
Barvasta To'ng'ich o'g'lon  
Tizzasini quchoqlab  
Ukalarga yuzlandi:  
«Gapim bordir sizlarga.  
Otamiz ham mol-dunyo  
Qoldirmadi bizlarga.  
Maslahat-da, yo'l olsak  
Boshimiz oqqan tomon.  
Peshonada nima bor —  
Yolg'iz o'ziga ayon.  
Qaratgan — qarab qolmas,  
Keng erur axir olam.  
Topsak — shukr, topmasak,  
Shukr deyluk unga ham...»

Ul aytganni qilishar  
O'rtancha-yu Kenjasi.  
Maslahat ham bo'ldi hal  
O'sha kuni kechasi.

Ko'p kezdilar dunyoni...  
Hammollik ham qolmadi.  
Bari bo'ldi va lekin,  
Lekin ular tolmasi.  
Nimanidir izlashar,  
Nimanidir. Kim bilsin?  
Mayli, hatto osmonning  
Ustunlari yiqilsin,  
Dunyoni-da olsin o't,  
Mayli bo'lsin qiyomat,  
Ishonardi uch o'g'lon,  
Bir kun kelar deb omad!

\* \* \*

Yana safar, yana yo'l...  
Nainki bu yer behisht?  
Yotardi yo'l bo'yida  
Uch g'aroyib oltin g'isht!  
«Hazilingmi, xudo, bu?  
Ayta qol qilmay xunob!  
Ne bo'lsa ham ishqilib,  
O'ng bo'lsin-da, xobmas, xob!»  
Og'a-ini uch o'g'lon  
G'ishtlarni qo'ldan qo'ymay,  
Goh siypalar, goh o'par,  
Termilar to'yib-to'ymay:  
«Jilosin ko'ring, aka!»  
«Hazil emas, sof oltin!»  
«Ko'z qamashdi ukalar...»  
«Oltin, axir sof oltin!»

Xumdon kabi qizir kun,  
Havo cho'yanday og'ir.  
Salqin joyga chiqdilar;  
To'ng'ichi dedi oxir:  
«Xo'p ochqapti qorin ham,

Ukalar, gap sirasi,  
Bu yer bilan shaharning  
Uzoq emas orasi.  
Kenjatoy, sen shaharga  
Tezdagina borib kel.  
Ma, pul! Shunga bir yemak,  
Ovqat-povqat olib kel!»

\* \* \*

Pachoqqina Kenjaning  
O'chganida qorasi,  
To'ng'ich O'rtanchaga der:  
«Gapning o'g'il bolasi —  
Shuki, shuncha yo'l bosdik,  
Topganimiz — uchta g'isht.  
Bu Kenjamiz bo'ldi-ku,  
Turgan-bitgani tashvish?  
U yosh bola, ne uchun  
U ham bir g'isht oladi?  
Lekin u-bu, desak-chi,  
Xo'p to'polon qiladi.  
Gap shu: bitta g'isht olib,  
Paytni poylab turasan.  
Kenja ovqat qo'yganda  
Qoq boshiga urasan!..»

To'ng'ichining yo'q edi  
Bosh suqmagan ko'chasi.  
Ul aytganni qilishar  
O'rtanchasi, Kenjasi.

Bir kosa osh ko'tarib  
Kenja kelib qoldi-ku.  
O'rtancha ham g'isht bilan  
Miyasiga soldi-ku!  
Til tortmasdan berdi jon

Kenjatoy o'sha asno.  
Oltin g'isht ham ikkiga  
Bo'lindi-ya, ajabo!  
Go'zal edi keng olam,  
Nurli edi bir yo'la.  
Akalar chehrasida  
Kezar tillavor shu'la...

\* \* \*

Shosha-pisha yedilar  
Ovqatni aka-uka.  
Birdan ko'zlari to'nib,  
Aylandi chikka-pukka!  
Tashnalikdan ezilar  
Dashtday qaqragan vujud.  
O't olganday yurakni  
Og'izdan chiqardi dud!  
Otash bo'lgan temirday  
Chirsillardi peshona...  
Faqat yumilmas ko'zlar —  
Tiriklikdan nishona.

Kenjatoy ham uch g'ishtni  
Olgandi-ku nazarga.  
Shul niyatda ovqatga  
Solgan edi zahardan!..

To'ng'ich, O'rtancha — unda,  
Kenjatoy esa bunda,  
Do'ng'rayishib yotardi.  
Yo'l bo'yida, zabunda.  
Yo'l uzra qolar yana,  
Yana kimgadir tashvish:  
Avvalgidek sehrigar,  
Endi to'rtta oltin g'isht...

---

## NINACHI HAQIDA ERTAK

Soz bo'lardi, agar bog'larda  
Yoz ne'mati yotsa sochilib.  
Ninachijon shuni xohlardi,  
Ketar edi ko'ngli ochilib!  
Dam olay deb bir lahza tinsa,  
Hol-joniga qo'ymasa havas,  
Yana gullar bargiga qo'nsa  
Kapalaklar ila basma-bas.  
Horib-tolsa, qolmasa majol,  
Yengil-yengil uchirsa shamol...

Lekin atrof na bog'-u bo'ston,  
Na diltortar jannati gulzor...  
Tashqarida hozir qahraton,  
Bog'larda qor, dalalarda qor.  
Ayozi-ku zahri beomon,  
Uzib olar tekkan joyini.  
Bo'lsa edi issiq oshiyon...  
Uy-puyning yo'qdir tayini.  
Badaniga uning bir-birin —  
Ignalarin sanchar izg'irin.

Uchay desa qanoti og'rir...  
O, qanchalar qattiq sovuq bu!  
Shu sababdan erkin va mag'rur  
O'z bilgicha ucha olmas u.  
Xazon cho'pni hassa qilganча  
Hech narsani ilg'amay ko'zi,  
Kuyingancha, xunob bo'lgancha  
Ketib borar yo'lda bir o'zi.



Ko'rinmasdi pana-pastqam joy,  
Yo'ldan chiqdi ko'priksiz bir soy.

O'tmoq bo'ldi qulayroq yerdan,  
Muz ustida ketarkan arang,  
Oyoqlari toyilib birdan,  
Sinib qoldi quyrug'i, qarang!  
Ninachi xo'p jonidan to'ydi:  
«Ey Muz aka! — dedi — Ko'p qulluq!  
Quyrug'imni sindirib qo'yding,  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»  
Taram-taram bo'lib yuz-beti  
Ko'kardi-yu, Muz aka dedi:

«Ninachijon, men zo'r bo'lsaydim,  
Topolsaydim sabot-u bardosh,  
Pisand qilmay, istagan payti  
Eritarmi sham kabi Quyosh?  
Hammasidan o'sha Quyosh zo'r!» —  
Ninachijon angrayib qoldi.  
Ishonmasdan bunga tinmagur  
Endi Quyosh sari yo'l oldi.  
He... yo'llarda uchradi bahor,  
Yellar unga bo'lishdi dastyor.

Yaraqlaydi oltin aroba,  
Quyosh tanho o'ltirar unda.  
Unga boqib obod-xarobot  
Bahra olar ushbu Zaminda.  
Chehrasidan yog'ilardi nur,  
Qamashtirar jamoli ko'zni:  
«Quyosh aka! Sen ekansan zo'r!  
Eritibsan hattoki Muzni!  
Senga keldim qilmoqqa qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Arobasin to'xtatdi Quyosh,  
Bir tin oldi nurli arg'umoq:  
Qayerdadir qoraygandi qosh,  
Qaydadir tong otgandi porloq.  
Chayqalishib qoldi ummonlar,  
Sahrolarga yopirildi tun.  
Ko'rshapalak shodmon bu onlar  
Kovaklarda qurdilar o'yin.  
Bulbullarga ushbu tun chog'i  
Uyqu bermas tong ishtiyog'i...

«Ninachivoy, men zo'r bo'lsaydim,  
Gar sezsaydim hokim o'zimni,  
Pisand qilmay, istagan payti  
Berkitarmi Bulut yuzimni?  
Hammadan ham zo'r erur o'sha!..» —  
Deya Quyosh niqtadi otin.  
Ninachijon — haqiqatpesha  
Hosil bo'lmay bunda murodi,  
Bulut sari bormoqqa endi  
Tag'in yellar kiftiga mindi.

Yelib borar qora ot ildam,  
Suvoriyni tanimoq qiyin.  
Lekin ma'shum ul suvoriy ham  
Kiyib olmish qop-qora kiyim.  
U — Bulut... u o'ltirar mag'rur,  
O'siq qoshlar to'sib ko'zini:  
«Bulut aka! Sen ekansan zo'r!  
Berkitibsan Quyosh yuzini!  
Qoyil senga, senga ming qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Chimirildi Bulut qoshlari,  
Tund yuziga mazaxli kulgu

Yoyildi-yu ta'na toshlarin  
Ninachiga otib qoldi u:  
«Nima deding? Men zo'r bo'lsaydim,  
Yerda hayot bitarmidi-ya!  
Axir Yomg'ir istagan payti  
Bag'rim teshib o'tarmidi-ya!  
Qilarmidi shunday meni xor?  
Zo'r kerakmi? Sen Yomg'irga bor!»

«Qanotingga tag'in meni ol!» —  
Ninachijon yelga yolvordi.  
Yengilgina esdi-yu shamol,  
Yomg'ir zo'rning qoshiga bordi:  
«Zarralaring mo'ldan-mo'l erur,  
Xuddi ishlab, terlab-pishibsan.  
Yomg'ir aka, sen ekansan zo'r,  
Bulutlarning bag'rin teshibsan!  
Qudratingga tan berdim, qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Toza havo, musaffo diyor,  
Ko'ngilga xush yoqardi biram.  
O'pkasini to'ldirib takror  
Nafas oldi Ninachijon ham.  
«Men zo'r bo'lib, eh, Ninachijon,  
Gavharmidim, siym-u zarmidim?  
Men zo'r bo'lsam, Yerga tushgan on  
Yerga darrov shimilarmidim?  
Hammasidan zo'ri o'sha Yer!» —  
Yomg'ir aka kulib shunday der.

Osilganча Yomg'ir doriga  
Ninachijon Yerga tushadi.  
Bu gap qo'ymay ixtiyoriga  
Havasiga havas qo'shadi.

Axir kim zo'r? Kimning haddi bor?  
Kim aytolur «Zo'rman!» deb unga?  
Zo'rni ko'kdan izlamoq bekor,  
Yerdan topar javobni bunga!  
Yerga tag'in bahor kelipti,  
Sel quyipti, shamol yelipti.

Hansiraydi ko'pchigan tuproq,  
Uyqusidan bog'lar uyg'onar.  
Goh yomg'irda cho'milsa yaproq,  
Goh bo'g'otdan chak-chak suv tomar.  
Paykal uzra taralar hovur,  
Kun yayratar dala-yu qimi.  
«Ey Yer aka, sen ekkansan zo'r,  
Shimvolibsan hatto Yomg'irni!  
Ta'zim qilay deb keldim. Qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Yer xo'rsindi, tebrandi og'ir...  
Bu Ninachi tentakmi o'zi?  
Nahot endi bilmasa?.. Axir  
Zo'rlar bilan to'la Yer yuzi!  
«Ninachijon, men zo'r bo'lsaydim,  
Turarmidim xokisor, g'arib?  
Hatto meni ilk bahor payti  
Mitti Maysa chiqarmi yorib?  
Mitti Maysa!.. Yer uzra, bay-bay,  
Boshqa zo'rlar borligin aytmay!..»

Kezib chiqdi yarim dunyoni,  
Hech yetmadi biron dodiga.  
Ninachijon jo'nar shu oni  
Yashil Maysa mamlakatiga.  
«Maysa aka, zo'rsan, g'aroyib!  
Zabt etibsan yaqin-yiroqni.

Osongina chiqibsan yorib  
Hatto Yerni, zarang tuproqni!  
Bosh egarman, qilarman qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Miyig'ida kuldi Maysalar,  
Bu gap ta'sir etmay qolmadi.  
Ninachijon, kuldimi ular,  
Yig'ladimi — bila olmadi.  
«Bir soddasan, soddasanki, g'o'r!  
Senga o'yin ko'rinar hayot.  
O'zing aytgil, men bo'lsaydim zo'r,  
Ezib-yanchib o'tarmidi Ot?  
Shunday so'zni dermiding menga?  
Men emas, Ot kerakdir senga!»

Hosillari yig'ib olingan  
Paykallarda kezar horg'in kuz.  
Ufq ko'ksida gur-gur qalqingan  
Uyurlarni ilg'ar edi ko'z.  
Ninachijon, mana, qurmag'ur,  
Yaqin keldi uyurga: «Qani?..  
Hoy Ot aka, sen ekansan zo'r,  
Yanchibsanki hatto Maysani!  
Qoyil qoldim, senga ming qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Ot akaning dili bo'ldi g'ash,  
Izzat-nafsga yetgandi ozor:  
«Axir Maysa har qayda bo'lgach,  
Bosib o'tmay ne ilojim bor?  
Ko'rmas edim jilov va egar,  
Tushov nima — asti bilmasdim.  
Sen aytganday, zo'r bo'lsam agar  
Meni Odam mingib olmasdi.

Gaplaringga tuz solgin ozroq,  
Zo'r, deb meni qilmagin mazoq!»

Ninachijon yo'l yurar hamon,  
Yo'l yursa ham bisyor, mo'l yurar.  
Keng bir hovli bo'ldi namoyon,  
Hovlida-chi Odam qor kurar.  
Yaqin kelib Ninachi bazo'r  
Og'iz ochdi murojaatga:  
«Odam aka, — dedi, — o'zing zo'r,  
Hatto jilov solibsan Otga!  
Qoyil qoldim, senga ming qulluq!  
Zo'r ekansan! Zo'rga taraf yo'q!»

Odam bunday boqsa o'grilib,  
Sado kelar sal nariroqdan:  
Ninachijon tinkasi qurib,  
Zo'rg'a turar edi oyoqda...  
Bechorani qo'liga olib,  
Uyga kirdi rahmdil Odam.  
O't yoniga issiq joy solib,  
So'ng sandalni gurillatgan dam:  
«Zo'r bilan ne ishing bor edi?  
Isinib ol hozircha!» — dedi.

Ninachining a'zolariga  
Sandal o'ti baxsh etar orom.  
«Yer yuzida kimlar zo'r?» degan  
Savolni ham unutar tamom.  
Tamom! Hozir yolg'iz boshida  
Shirin uyqu xayoli yurar.  
Odam esa uning qoshida  
Jilmayganча termilib turar.  
Darhaqiqat, qilingiz qulluq:  
Odam zo'rdir! Zo'rga taraf yo'q.

---

## MUNDARIJA

Alifboni sevamiz .....	3
Onamlarning bayrami.....	4
Askar bo'laman .....	5
Sohibqiron bobomlar.....	6
Kungaboqar.....	7
Momaqaymoq.....	8
Bo'taloq.....	9
Shudring.....	9
Zubtutum.....	10
Uchuvchi, deb chaqiring .....	12
Vagonlar.....	12
Qo'g'irchoqning opasi .....	13
Chittigul .....	14
Maktabimiz hovlisi.....	14
Bu fasl nomi nima? .....	15
Muzqaymoq .....	16
Til o'rgangan mushukcha .....	16
Sirli qushlar. <i>Hind afsonasi</i> .....	17
Uch oltin g'isht. <i>Otamning hikoyasi</i> .....	20
Ninachi haqida ertak .....	24

**Muhammad Ali**

## **UCH OLTIN G'ISHT**

*Muharrir Umida Sodiq qizi*  
*Badiiy muharrir Jahongir Badalov*  
*Texnik muharrir Yelena Tolochko*  
*Musahhah Umida Rajabova*  
*Matn teruvchi Feruza To'laganova*



Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2015-yil 20-mayda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^{1/16}$ . Ofset qog'ozi. BalticaUz garniturası. Shartli bosma tabog'i 1,86. Nashr tabog'i 1,17. Adadi 1000 nusxa (1 zavod 300 nusxa). Shartnoma № 20 – 2015. Buyurtma № 132. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tezkor matbaa bo'limida chop etildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.